

---

# O'QUV MUASSASALARIDA HAMKORLIK ASOSIDA TADBIRLAR O'TKAZILMOQDA



## **O'quv muassasalarida hamkorlik asosida tadbirlar o'tkazilmoqda**

Farg'ona viloyatining So'x tumani maktablarida tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Madinaxon Safarova, tuman IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, podpolkovnik Shahnoza Shodmonova hamda tuman IIB JXX HPB inspektor-psixologlari bilan hamkorlikda maktablarga o'quvchi yoshlarni dars jaaryonlariga qatnashlari bo'yicha "Davomot" tadbirlari o'tkazilmoqda.

Tadbirlar davomida maktabga sababsiz qatnashmayotgan va sinf ko'rsatkichini ortga surayotgan o'quvchilar bilan yakka tartibda profilaktik ishlarni tashkil etish, ularni yashash xonadonlariga borilib, otalarini rasman ogohlantirish, kelgusida ijobiy natijaga erishilmagan taqdirda tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, ularga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishi haqida ogohlantirishlari bo'yicha maktab ma'muriyatiga alohida ko'rsatmalar berilmoqda.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-28 16:21:51